

PERSONAJLAR NUTQIDA PARAFRAZA: TURLARI VA STILISTIK VAZIFALARI

Qahramon Saloyevich SOBIROV

dotsent

filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi

Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada dramatik matnlarda parafrazaning qo'llanishi, uning turlari va stilistik vazifalari yoritiladi. Parafraz personaj nutqning ta'sirchanligini kuchaytiruvchi, personajlarning ruhiy holatini ochib beruvchi hamda ijtimoiy-ma'naviy mazmunni chuqurlashtiruvchi vosita sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, dramatik asarlarda parafrazaning o'rni, uning o'ziga xos lingvopoetik imkoniyatlari misollar asosida tadqiq etiladi.

Tayanch so'zlar: parafraza, personaj nutqi, stilistik vosita, dramatik matn, lingvopoetika, turlar, uslub.

ПАРАФРАЗЫ В РЕЧИ ПЕРСОНАЖЕЙ: ВИДЫ И СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ

Кахрамон Салоевич СОБИРОВ

доцент

доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Хорезмский областной центр педагогического мастерства

Ургенч, Узбекистан

Аннотация

В данной статье рассматривается использование парафразы в драматических текстах, её виды и стилистические функции. Показано, что парафраз служит средством усиления выразительности речи, раскрытия психологического состояния персонажей и углубления социально-духовного содержания произведения. Также на примерах исследуется роль парафразы в драматических произведениях и её специфические лингвопоэтические возможности.

Ключевые слова: парафраз, речь персонажей, стилистическое средство, драматический текст, лингвопоэтика, виды, стиль.

Dramatik asar tilida emotsional-bahoviy ifoda vositalari muhim o'rin tutadi. Shulardan biri parafraza (tasviriy ifodalar) bo'lib, u bevosita nomlashni chetlab o'tib, sinonimik yoki ramziy ifoda orqali ma'no beradi. Parafraza – narsa, hodisalarni boshqa so'z va iboralar bilan atash usulidir, bir ma'noni boshqa shaklda ifodalash san'ati. Bunda nutqning ifodaviyligini oshirish nazarda tutiladi. Shuning uchun ham bu usulda nomning almashtirilishi orqali voqea-hodisa, narsa

yoki kishi haqida o'quvchi yo tinglovchida yorqin tasavvur hosil qilinadi. Parafraza (perifraza) odatda, boshqa hodisalar yoki badiiy ifoda vositalari – metafora, epitet, allegoriya, giperbola, litota va personifikatsiya bilan bir qatorda qo'llaniladi. U she'riy va publitsistik nutqda keng ishlatiladi.

Rus tilshunosligida I.Z.Ilina [1;48–56] va V.P.Utkina [2;87–109] tomonidan lingvistik jarayon sifatida boshqa hodisa yoki vositalar (istiora, metonimiya, sinekdoxa, metafora, majoz, kinoya, sifatlash, kichraytirish, mubolag'a) bilan bog'liq holda tasvirlagan. Jahon tilshunosligida ham atroflicha o'rganilib kelinmoqda. XX asrning 70-yillaridan boshlab o'rganishga bo'lgan qiziqish bir qadar oshdi. Parafrazalarni lingvistik muammo sifatida birinchilardan bolib V.P.Grigorev tadqiqotlarida so'z-obraz-denotat munosabatlari nuqtai-nazaridan o'rgandi. Olim uni “poetik nutq hosil qilishning eng yorqin qiziqarli va istiqbolli usullaridan biri” deb tavsiflaydi [3;122–125].

Bu davrda D.P.Vovchok ishlari e'tiborga molik bo'lib, gazeta tilida metaforik perifrazaning vazifalari va turlarini tahlil qildi [4]. Perifrazaning nazariy jihatlarini L.N.Sinelnikova tomonidan atroflicha ishlab chiqildi, u perifrazani she'riy nutqda strukturaviy-semantik va stilistik nuqtai nazardan o'rgandi [5]. Shuningdek, Y.D.Apresyan ham perifrazaga oid qarashlari bilan ajralib turadi. U til tizimida parafrazlash qoidalari mavjud bo'lishi zarur deb hisoblagan. Uning fikricha, insonning til bilan bog'liq faoliyati ana shunday qoidalar orqali ifodalanadi. Biroq bu qarashlar qarama-qarshiliklardan holi emas, chunki inson qobiliyatiga qoidalar qo'llash mumkinmi, degan savol ochiq qoladi. Shu sababli Y.D.Apresyan parafrazlashning turli usullarini ham belgilagan: sinonim almashtirish, antonimdan foydalanish, konversiya va boshqa usullar. Bu tilning bir ma'noni turli vositalar bilan ifodalash xususiyatini aks ettiradi [6].

XX asrning ikkinchi yarmida parafrazaga oid tadqiqotlar yakuniy xarakter kasb eta boshladi. Masalan, A.N.Kojin parafrazani “voqealarning ikkinchi nomi” sifatida talqin qilib, uning nutq ekspressivligini kuchaytiruvchi xususiyatini ko'rsatdi [7;89–94]. D.P.Vovchok esa perifrazalarni lug'at shaklida ifodalashga harakat qildi [8]. V.P.Grigoriev “So'z poetikasi” asarida perifraza haqidagi

qarashlarni jamladi [9]. Y.A.Belchikov esa bu davrda rasmiy ilmiy konsepsiyani shakllantirdi [10;203–204].

1980-yillarda Yevropa tilshunosligida perifrazaga yangi yondashuvlar paydo bo‘ldi. Nemis tili asosida parafrazaning matn yaratishdagi roli [11;13–16], leksik aktualizatsiyadagi o‘rni [12; 23–29] tahlil qilindi. Fransuz tili misolida esa parafraza zamonaviy she‘riyatda nominatsiya vositasi sifatida o‘rganildi. Ayniqsa, K.Fuchsning ishlari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. U parafrazani nutq subyektining ma‘lum kommunikativ vaziyatdagi ongli faoliyati deb ta‘rifladi [13]. Keyinchalik u parafrazaning semantik tabiati, predikativ shakllari va kontekstual talqinlari haqida ilmiy ishlar olib bordi [14;129–134].

Fransuz tilshunosligida Sh.Balli perifrazani “fikrni takrorlashning kengaytirilgan shakli” deb atagan [15]. 1990-yillarga kelib perifrazaning tilshunoslik va tarjima nazariyasidagi o‘rni ham tadqiq etildi [16;1475–1483]. Bu davrda grammatik an‘analar va lotin tilidagi qo‘llanilish tarixi ham o‘rganildi [17; 279–300].

Ingliz tilshunosligida perifrazaga oid tadqiqotlar ko‘proq matn tilshunosligi va semantika nuqtai nazaridan olib borildi. Shu bilan birga, tarjima jarayonida perifrazaning o‘rni, shuningdek, qadimgi tillarda (lotin, yunon, portugal va boshqalarda) perifrastik qurilmalar tahlil qilindi. 1990-yillarda ingliz tilshunosligida perifrazaning ko‘proq tarixiy sintaksis bilan bog‘liq jihatlari o‘rganildi [18;31–43].

Parafraza atamasining xorijiy lug‘atlarda turlicha talqini uning farqli va o‘xshash tomonlari xususida bahs yuritilgan. Parafraza aslida “grekcha” so‘z bo‘lib (paraphrasis), lingvistikada jumladan, o‘zbek tilshunosligida “tasviriy ifoda” ma‘nosida qo‘llanadi. Bu hodisalar hozirgi kunda ham olimlar nazarida chetda qolgan emas. Leksikograf olim O.S.Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik qomusiy lug‘atda parafrazaga “biror so‘zni ba‘zi predmetlarning so‘zlar orqali oddiy ifodalanishini tasviriy ifoda bilan almashtirishdan iborat bo‘lgan ko‘chim” deb izoh bergan [19]. O‘zbek tilshunosligida ko‘chim turi sifatida parafrazani tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov “O‘zbek tili stilistikasi” qo‘llanmasida:

“...kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to‘g‘ridan to‘g‘ri gapirmasdan, ularni turli xil so‘z yoki tasviriy ifodalar vositasida bayon qilish perifriza deyiladi” deb ta‘rif bergan [20]. Tasviriy ifodalarning parafriza yoki perifriza, parafriz, perifriza deb yuritiladigan nomlari bir xil ma‘noni anglatadi. Bu borada tadqiqot olib borgan tilshunos olim M.Mirtojiyevning tadqiqotlarida batafsil o‘rganilgan. Olimning ta‘kidlashicha parafrizalar ma‘lum bo‘lak yoki ko‘chma ma‘noda bo‘lib, ular ma‘nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug‘aviy birliklardir [21].

Parafriza orqali so‘zlovchining chuqur hurmati, ulug‘lashi ifoda etilishi mumkin. Masalan:

I posbon

Oy deganing, ya‘ni barcha yulduzga rais,

Ya‘ni ulug‘ jahongirga yulduz bo‘ladi.

(“Mirzo Ulug‘bek”)

Bu yerda “ulug‘ jahongir” parafrizasi orqali sohibqiron Amir Temur tushuniladi. Ushbu satrlarda “Oy” obraz sifatida qo‘llanib, “barcha yulduzga rais” deb ta‘riflanmoqda. Ya‘ni, oy tungi osmon tizimidagi yulduzlarning boshchisi, rahbari sifatida tasvirlangan. Bu orqali ulug‘ jahongirning (Ulug‘bek) jamiyatdagi o‘rni, mavqei osmon jismiga qiyoslangan. “Oy” metaforik parafriza sifatida ishlatilgan, u yetakchilik, buyuklik, yagonalik ma‘nolarini yuklaydi. “barcha yulduzga rais” iborasi ramziy parafrizadir, chunki oy nafaqat tabiat hodisasi, balki hokimlik va rahbarlik belgisi sifatida qabul qilinadi. “yulduz bo‘ladi” semantik jihatdan ulug‘ shaxsning nuri va yo‘l ko‘rsatish xususiyatini bildiradi. Bu bilan oy va yulduzlar timsoli insoniy sifatlar bilan bog‘lanmoqda. Ulug‘bekning shaxsi “yulduzlarga rais bo‘lgan oy” timsoli orqali ulug‘lashtiriladi. Bu esa mubolag‘a va majoziy ta‘rifning uyg‘unlashuvini ko‘rsatadi. Oy va yulduzlar bilan qiyoslash orqali Ulug‘bekning beqiyos salohiyati va ulug‘ligi tinglovchiga estetik zavq bilan yetkaziladi. Parafriza obrazni yanada badiiylashtiradi, oddiy “buyuk olim” yoki “jahongir” degan ta‘rifdan ko‘ra ta‘sirchanroq ko‘rinadi.

Ba'zan personaj nutqida parafraza orqali so'zlovchining nafrati ifoda etiladi.

Masalan:

Ulug'bek

Eh, g'arazning, taassubning badbaxt muridi,

Sayidlikning sharafidan mahrum noxalaf.

Siz yorug'ning g'animisiz, zulmat maddohi.

Sayid Obid

Senlarda ham menga g'araz borga o'xshaydi,

Madrasada fasod loyin yalagan avlod.

(“Mirzo Ulug'bek”)

“Eh, g'arazning, taassubning badbaxt muridi” bu yerda “murid” so'zi to'g'ridan-to'g'ri diniy termin bo'lib, pirlarga ergashuvchi shogird ma'nosini anglatadi. Biroq kontekstdagi “g'araz” va “taassub” abstrakt tushunchalari shaxsiylashtirilgan va ular “ustoz” sifatida talqin qilinmoqda. Demak, “g'arazning muridi” iborasi parafraz bo'lib, u “g'araz va taassub tuyg'usiga xizmat qiluvchi kishi” degan ma'noda ishlatilmoqda. Bu yerda shaxsning asl mohiyati bevosita aytilmay, uni boshqa termin – “murid” orqali o'zgacha ifodalash kuchaytirilgan.

“Sayidlikning sharafidan mahrum noxalaf” bu yerda “sayid” maqomi muqaddas nasl vakiliga ishora qiladi. “Sayidlik sharafi” iborasi esa parafraz tarzida ishlatilib, aslida qahramonning milliy va diniy qadriyatlarga loyiq emasligini ta'kidlashga xizmat qilmoqda. “Noxalaf” esa “asl naslga loyiq bo'lmagan avlod” degan ma'noni beradi. Bu parafrazlar orqali shaxsning axloqiy-ruhiy buzilishi keskin ifodalanadi.

“Siz yorug'ning g'animisiz, zulmat maddohi” bu misralarda yorug'lik – ezgulik, ilm va ma'rifatning ramzi, zulmat esa – jaholat, yovuzlik timsolidir. Shaxsni “yorug'ning g'animisiz” deb atash – parafraz bo'lib, u aslida ilm-fanga, adolatga qarshi turuvchi kimsani bildiradi. “Zulmat maddohi” esa “jaholatni madh etuvchi” ma'nosida qo'llanilgan parafraz bo'lib, obrazli tasvirning kuchini oshirgan.

“Madrasada fasod loyini yalagan avlod” bu satrda “fasod loyini yalash” iborasi metaforik-parafraz tarzida ishlatilgan. U bevosita “buzuq odatlardan oziqlangan, illatni o‘zlashtirgan” avlodni bildiradi. Parafraz orqali diniy ta’lim maskani – madrasa qisman tanqid ostiga olinmoqda, chunki u yovuzlik va g‘araz manbai sifatida ko‘rsatilmoqda.

Personaj nutqida parafrazalarda ba’zan baholash va tasvir etish ma’nosi qo‘shib ifodalanadi. Bunda so‘zlovchining obektga ijobiy yo salbiy munosabati ochiq ko‘rinib turadi. Masalan, Ulug‘bek nutqidagi parafrazalar:

Ulug‘bek

Bor, azizim, yomonlikning gumashtalari
Tek tursalar, jig‘ar-bag‘ri ezilgan pastlar.
Mamlakatda osoyishning kushandalari,
Qon hididan sarxush bo‘lgan boshi buzuqlar,
Zuluk bo‘lib el qonini so‘rgan hayvonlar.

(“Mirzo Ulug‘bek”)

“Yomonlikning gumashtalari” – bu yerda parafraz orqali real shaxslar (fitnachilar, amaldorlar yoki zulmkor kuchlar) abstrakt “yomonlikning vakillari” sifatida ifodalanmoqda. Ushbu parafraz axloqiy-etik qiymatni ochib beradi va badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi. “Mamlakatda osoyishning kushandalari” – siyosiy adolatsizlik va zo‘ravon kuchlar tinchlikni yo‘q qiluvchi obrazda ko‘rsatiladi. “Zuluk bo‘lib el qonini so‘rgan hayvonlar” – real hayotdagi zolimlar “zuluk” hayvoniga qiyos qilinib, ularning xalqni talash va ezish faoliyati timsollanadi.

Demak, “Mirzo Ulug‘bek” dramasiidagi parafrazalar semantik chuqurlik, badiiy obrazlilik va stilistik rang-baranglikni ta’minlovchi vosita sifatida maydonga chiqadi. Oy va yulduzlar timsolida yetakchilik, buyuklik, ilmiy-ma’rifiy yuksaklik g‘oyalari ifodalanib, personaj nutqiga ham falsafiy, ham emotsional kuch bag‘ishlaydi. Bu esa dramaturg nutqiy-badiiy mahoratining yorqin ifodasidir.

Dramatik matnlarda parafraz – bu faqatgina badiiy bezak emas, balki shaxsiy kechinmalarni umumiy ijtimoiy-falsafiy mazmunga ko‘taruvchi kuchli

vosita hisoblanadi. U orqali dramaturg qahramon nutqiga obrazlilik, ziddiyatlilik va ma'naviy teranlik baxsh etadi. Shu bois parafraz drammatik nutq poetikasida semantik kengayish, emotsional ta'sir va estetik qudrat manbai sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ильина И.З. Перифраз и его стилистические функции в произведениях английской художественной литературы: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Москва, 1954. –
2. Уткина В.П. Перифрастический оборот в русской художественной литературе // Известия Крымского педагогического института им. М.В. Фрунзе. Симферополь, 1959. – Т. 33. – Вып. 1. – С. 87-109.
3. Григорьев В.П. Слово – образ – денотат: К проблеме перифразы // Н.А. Не красов и русская литература: Тезисы докладов и сообщений межвузовской конференции. – Кострома, 1971. – С. 122-125.
4. Вовчок Д.П. «Экономическая» функция газетных метафорических парафраз // Исследования по стилистике. – Пермь, 1974.
5. Синельникова Л.Н. Именная перифраза в языке современной поэзии (струк-турно-семантическая и стилистическая характеристика). Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Москва, 1975.
6. Апресян Ю.Д. Синонимические средства языка и правила перифразирования // Русский язык в национальной школе, 1972. – № 3.
7. Кожин А.Н. Перифрастические построения в языке советской эпохи // Русский язык в школе, 1977. – № 4. – С. 89-94.
8. Вовчок Д.П. Опыт словаря метафорической газетной фразеологии // Функциональный стиль речи в синхронном и диахронном аспектах. – Пермь, 1978.
9. Григорьев В.П. Поэтика слова. – Москва, 1979.
10. Бельчиков Ю.А. Перифраза // Русский язык: Энциклопедия. – Москва, 1979. – С. 203-204.

11. Дауленова З.Н. Текстобразующие функции перифразы // Текстобразующие свойства языковых единиц. Алма-Ата, 1987. – С. 13-16.
12. Борисова Т.И. Способы лексической актуализации в перифразе // Прагматико-семантические аспекты немецкой лексики. – Калинин, 1988.
13. Fuchs C. Paraphrase et théorie du langage. Paris, 1980.
14. Fuchs C. A parafrase linguistica: Equivalencia, sinonimia ou reformulacao? //
15. Cadernos de estudos ling. Campinas, 1985. N 8. P. 129-134.
16. Балли Ш. Французская стилистика. М., 1961.
17. Sussex R. Paraphrase strategies and the teaching of translation // Linguistics across historical and geographical boundaries. B. etc., 1986. Vol. 2. P. 1475-1483.
18. Fuchs C. «Encore...» des paraphrases: approches linguistiques de la signification et mises en perspective cognitives // Langues et langage. Paris, 1995. P. 279-300.
19. Reddick R.J. Textlinguistics, text theory, and language users // Word. N.Y., 1986. Vol. 37.N 1/2. P. 31-43.
20. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1969.
21. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. –Самарқанд: 1975.
22. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. – 136 б.